Asqad Muxtor (1920-1997)



Asqad Muxtor (1920-1997)

Atoqli shoir, nosir va dramaturg Asqad Muxtor 1920 yil 23 dekabrida Farg‘ona shahrida temir yo‘l ishchisi oilasida tug‘ilgan. U 11 yoshida otadan yetim qolib, bolalar uyida tarbiyalangan. Maktabni tugatgach, Asqad Muxtor O‘zbekiston Davlat universitetiga (1938) kirib o‘qiydi. So‘ng Andijon pedagogika institutida o‘zbek adabiyoti kafedrasining mudiri bo‘lib ishlaydi. Asqad Muxtorning Toshkentga kelishi uning faoliyatida yangi sahifa ochdi. U «Yosh leninchi» (1945), so‘ngra «Qizil O‘zbekiston» gazetalarining muharririyatlarida bo‘lim mudiri, mas’ul kotib, «Sharq yulduzi» jurnalida bosh muharrir (1960—1965), O‘zbekiston Yozuvchilari uyushmasida kotib (1957) bo‘lib ishlaydi. «Guliston» jurnaliga, «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» haftaligiga muharrirlik qildi.

Asqad Muxtor «Tilak», «Tong edi», «Totli damlar» singari ilk she’rlari (1935—1938)da she’riyatning maqsad va vazifasini, shoirning jamiyat oldidagi burchini aniqlab olishga intiladi. U she’riyatga «Qalbga qanot», «Dardga davo» beruvchi deb qaraydi. Shoir Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan «G‘alaba ishonchi», «Jangchining bayram kechasi», «Tug‘ishganlar qaytdi», «Sog‘inish» singari qator she’riy asarlarini yaratib, xalqni fashist bosqinchilariga qarshi kurashga undaydi. Vatan go‘zalliklarini, tuganmas boyliklarini, xalq hayotidagi katta o‘zgarishlarni tasvirlovchi «Po‘lat quyuvchi» (1947), «Hamshaharlarim» (1949), «Rahmat, mehribonim» (1954), «Chin yurakdan» (1956) she’riy kitoblarini yozadi.

Asqad Muxtor «Mardlik cho‘qqisi» (1948), «Yaxshilikka yaxshilik» (1949), «Samandar» kabi pesalar ham yozgan. Yozuvchining «Daryolar tutashgan joyda» (1950), «Qoraqalpoq qissasi» (1958), «Buxoroning jin ko‘chalari» kabi qissalarida, «Opa-singillar» (1955), «Tug‘ilish» (1963), «Davr mening taqdirimda» (1964), «Chinor» (1973), «Amu» kabi romanlarida zamonamizning muhim muammolari o‘z ifodasini topgan.

«Chin yurakdan» (1956) she’riy kitobi, «Hayotga chaqiriq» (1956), «Dunyo bolalari» (1962) hikoyalar to‘plamlari o‘zbek bolalar adabiyoti xazinasini boyitgan.

Shoirning «99 miniatyura», «Karvon qo‘ng‘irog‘i» she’riy kitoblari 60—70- yillar o‘zbek she’riyatida katta voqea bo‘lgan. Ularda inson qalbining toblanishlari chuqur intellektual his-tuyg‘u vositasida talqin etilgan.

Sofokl, Tagor, Pushkin, Lermontov, Mayakovskiy, M. Gorkiy, T. Shevchenko, Blok, Korneychuk asarlari Asqad Muxtor tarjimasida o‘zbek kitobxonlarining ma’naviy mulkiga aylangan.

Asqad Muxtor lirik shoir, taniqli adib, mohir tarjimon sifatida o‘zbek madaniyati tarakqiyotiga katta hissa

qo‘shgan. U O‘zbekiston xalq yozuvchisi (1980), Hamza nomidagi respublika Davlat mukofotiga (1972) sazovor bo‘lgan. «Do‘stlik» ordeni bilan mukofotlangan (1995).

1997 yil 17 aprelda Toshkent shahrida vafot etgan.

2023-09-08 21:34:07